

KORRUPSIYA BILAN BOG'LIQ JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.

ФИО автора: Normetov Toxirjon Xomidovich

Chirchiq Oliy tank qo'mandonlik

muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrası katta o'qituvchisi dotsent

Название публикации: «Korrukpsiya bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish: milliy va xorijiy tajriba»

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyani oldini olishda ochiqlik siyosatini yuritish, davlat organlari qonun ustuvorligini ta'minlashi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining roli, halollik hamda xolislik haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: oshkoralik, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari, haqqoniylik, xolislik, halollik, fidokorlik, rahbarlik, korrupsiya, demokratiya, jinoyatchilik, pora, illat va jamiyat.

Борьба с коррупционными преступлениями: отечественный и зарубежный опыт.

Аннотация: В данной статье речь идет о реализации политики открытости в предотвращении коррупции, верховенстве закона государственными органами, роли общественности и средств массовой информации, честности и беспристрастности.

Ключевые слова: прозрачность, публичность, средства массовой информации, правдивость, беспристрастность, честность, жертвенность, лидерство, коррупция, демократия, преступность, взяточничество, порок и общество.

Hammamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va

senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev

5 mart 2025 yil

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirishning bugungi sharoitida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish davlat va jamiyat oldidagi muhim va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish mustahkkam huquqiy asos va samarali huquqiy mexanizmni joriy etilishini talab etadi.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 2 fevraldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-qarorida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyasini tuzilishi, mazkur Komissiya to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlanishi, Mazkur Nizomda Komissiyaning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo‘yilganligi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish ishlarini tizimli ravishda olib borilishiga shart-sharoitlar yaratadi va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini samarali ta’minlanishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan 2017 yil 3 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonunining kuchga kiritilishi “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, degan ezgu g‘oyalarni jamiyat hayotiga tatbiq qilish hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil qilish maqsadida qabul qilingan. Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan strategik islohotlarni samarali yakunlanishi hamda “yashirin iqtisodiyot”ga barham berilishiga xizmat qilishini qayd etish joiz.

Ushbu qonunda korrupsiyaga ta’rif, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika Idoralararo komissiyasining asosiy vazifalari, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning

korruptsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi, ommaviy axborot vositalarining korruptsiyaga qarshi kurashishda asosiy vazifalari, aniq va lo‘na ko‘rsatib qo‘yilgan.

Korruptsiya huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biri hisoblanadi. U har qanday mamlakatning qonun ustuvorligiga putur yetkazadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi global jamiyat uchun korruptsiyaning ziyoni yiliga salkam 3 trillionga teng. Yirik investorlar ham korruptsiyalashgan davlatga o‘z sarmoyalarini kiritishdan qo‘rqadi. U avj olgan joyda rivojlanish bo‘lmaydi, aksincha jamiyat tanazzulga yuz tutadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda korruptsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Bu borada Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlari, kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Shu bilan birga, korruptsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari yaratib borilmoqda. YA’ni, sohaga oid bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinyapti. Qolaversa, mamlakatda korruptsiya xavf-xatarlari yuqori bo‘lgan, korruptsiyaviy huquqbuzarliklar eng ko‘p sodir etilayotgan sohalar bo‘yicha alohida tahlil o‘tkazilib, mazkur sohalarida korruptsiyaning oldini olish borasida muhim choralar ko‘rilmoqda.

Davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini “Reyting baholash” hamda davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini baholashga qaratilgan “Ochiqlik indeks”lari joriy etildi.

Ma’lumki, bugungi kunda, hokimlar va ularning turli darajadagi xodimlari, boshqa davlat organlarining xodimlari tomonidan korruptsiyaga oid jinoyat sodir etilayotganligi hamda pora bilan qo‘lga tushayotganligi to‘g‘risida ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida berilayotganligi jamiyatda korruptsiyaga qarshi kurashish ishlari davlatning vakolatli organlari tomonida tizimli ravishda izchil borilayotganligini ko‘rsatadi.

Bizga ma'lumki, korrupsiya jamiyatni rivojlanishiga qarshi qaratilgan harakat sifatida har qanday jamiyat va davlatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni chuqurlashtirishga sabab bo'ladigan omil sifatida baholanadi.

Ko'pchilik ekspertlar tomonidan jamiyatda korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lib, unga qarshi kurashish uchun alohida choralarni qo'llash samarali hisoblanmasligi qayd etilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyat kompleks-majmuaviy tarzda muntazam ravishda izchil amalga oshirilishi yaxshi natija berishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va obyekti sifatida alohida olingan korrupsionerga emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralari namoyon bo'ladi.

Har qanday davlatda korrupsiyaning rivojlanishi davlatning ichki va tashqi siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada jamiyat a'zolarini mazkur davlatning organlariga bo'lgan ishonchiga putur yetkazishga olib keladi.

2025 yil 1 yanvardan aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirishga qaratilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasi joriy etiladi. Bu haqda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xabar berdi.

Unga ko'ra, virtual akademiya o'quv faoliyatini tashkil etish va yuritish agentlik hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Bu borada "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori imzolandi.

Agentlik:

- o'qitilishi lozim bo'lgan davlat xizmatchilari kontingentini shakllantiradi va Akademiya bilan kelishgan holda yillik o'qitish reja-grafigini tasdiqlaydi;
- o'quv jarayoni sifatli tashkil etilishini monitoring qilib boradi;

- yangi o'quv modullarini joriy etish bo'yicha Akademiyaga takliflar kiritadi;
- o'quv jarayoniga jalb qilingan davlat organlari va tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi;
- Akademiya bilan birgalikda har yili Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga Virtual akademiya faoliyati yuzasidan axborot kiritadi.

Virtual akademiya o'qitish quyidagi kontingent uchun olib boriladi:

- aholi, tadbirkorlik subyektlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari vakillari;
- ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o'quvchilari va talabalari;
- davlat organlari va tashkilotlarining davlat xizmatchilari;
- davlat ishtirokidagi korxonalarning xodimlari.

Virtual akademiya o'qitish bazaviy (barcha foydalanuvchilar uchun bepul) hamda maxsus o'quv kurslari (to'lov-shartnoma asosida) bo'yicha yo'lga qo'yiladi.

Insoniyat butun rivojlanish tarixi davomida turli texnologiyalarni ixtiro qildi, ko'plab davosi bo'lmagan kasalliklarga davo topdi. Afsuski, korrupsiyaga qarshi aniq bir dori yo'q. Uni faqatgina tizimli kurash orqali yo'q qilish mumkin. Bu dunyo tajribasida o'z isbotini topgan.

Ammo har qanday soha takomillashib, rivojlanib borgani kabi, korrupsiya illati ham o'z tusini o'zgartirib, yangi-yangi ko'rinishlarda jamiyatda "suzib" yuradi. Unga qarshi kurash usullari ham bir joyda qotib qolishi mumkin emas. Ho'sh, bugungi O'zbekistonda korrupsiya qarshi kurash qay ahvolda? Bu yo'nalishda innovatsion texnologiyalar qo'llanyaptimi? Odamlar korrupsion holatdan xabar topganda tegishli idoralarni bundan ogohlantirishi uchun yo'llar ochiqmi?

Zamon jadallik bilan rivojlanmoqda. Shunday ekan, unga mos ravishda korrupsiyaga qarshi yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida kurash olib borilmoqda.

Xususan, Adliya vazirligi tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatlari haqidagi xabarlar o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlash maqsadida telegram ijtimoiy tarmog'ida maxsus bot yaratilib, ishga tushirilgan.

Endilikda Adliya vazirligi va uning tizimidagi ta'lim muassasalarida noqonuniy ishlar, jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatlari haqida ushbu bot orqali xabar berish mumkin bo'ladi.

Davlatimiz rahbarining mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, korrupsiyadan xoli Yangi O'zbekistonni qurish yo'lidagi sa'y-harakatlari nafaqat xalqimiz, balki xalqaro hamjamiyatning ham e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Bu borada BMT, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamkorlik qilinmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasining teng huquqli a'zosi sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda avvalombor davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, davlat xizmatida korrupsiya omillarini bartaraf etish, kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish va ular faoliyati samaradorligini baholashning huquqiy asoslarini takomillashtirish kabi ustuvor vazifalar o'z aksini topgan.

Davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulklarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadlari mustahkamlandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi milliy ma'ruzani eshitish Oliy Majlisi palatalarining birgalikdagi vakolatlari sifatida belgilab qo'yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak xalqaro mukofot bilan taqdirlash marosimining aynan poytaxtimizda o'tkazilgani zamirida ham chuqur ramziy ma'no bor. Zotan, o'tgan davrda yurtimizda davlat xizmatlarini ko'rsatishni soddalashtirish,

ko'p hollarda korrupsion holatlar manbai bo'lib kelgan byurokratik va keraksiz tartiblarni qisqartirish bo'yicha jiddiy ishlar olib borildi.

O'zbekiston 2021 yilda Xalqaro Ochiq ma'lumotlar xartiyasiga a'zo bo'ldi. Istanbul harakatlar dasturi, Global operativ tarmoq, Yevroosiyo, Egmont guruhlar va boshqa ko'plab platformalarda samarali ishtirok etib kelmoqda. G'arbiy va Markaziy Osiyo davlatlarining aktivlarni qaytarish tarmog'ining Kotibiyati vazifasini bajarmoqda. Qolaversa, har yili Toshkentda an'anaviy Xalqaro aksil korrupsiya forumi o'tkazib kelinadi

Davlatimizda korrupsiyaga murossasiz kurash borasida olib borilayotgan islohotlar va rejalar bilan birga, muhim tashabbuslarni ham doimo ilgari surib bormoqda. Xususan, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030 yilgacha mo'ljallangan milliy strategiya ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilishi kutilmoqda.

Uning asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilar belgilandi:

- davlat boshqaruvida korrupsiyaning oldini olish;
- davlat xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olish;
- davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaning oldini olish;
- sud-huquq tizimida korrupsiyaning oldini olish;
- jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

Qolaversa, Toshkentda Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasining Mintaqaviy platformasi o'z faoliyatini boshlagan. Korrupsiya holatlari bo'yicha "dastlabki o'rganish" – korrupsion surishtiruv instituti joriy etildi. Prezidentimiz aytganidek, "jamiyatimiz oldida ongi va qalbi bolalikdan "halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazishdek ustuvor vazifa turibdi". Shu maqsadda BMTning Korrupsiyaga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi dasturini O'zbekistonda keng joriy etish maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

Xorijiy mamlakatlarda musodara qilingan va ortga qaytarilgan eng ko'p korrupsiya daromadlar Shveytsariya, Singapur va Lixtenshteyn shuningdek, Nigeriya va Malayziya korrupsiya bilan bog'liq aktivlarning eng ko'p miqdori xorijiy yurisdiksiyalardan undirilgani haqida ma'lum qilingan. Har ikki davlat 1,2 milliard dollar miqdorida xorijiy banklarga o'tkazib yuborilgan mablag'larni yana ortga qaytargan. Biroq ko'pgina davlatlar ko'pincha korrupsiyadan olingan daromadlar egalarini aniqlash va tekshirishdagi qiyinchiliklar yoki sudlanmagan holda mablag'larni musodara qilishning imkoni yo'qligi sababli aktivlarni qaytarib olish yo'lidagi to'siqlarga duch kelmoqda.

Korrupsiya, poraxo'rlik, budjet mablag'larini noqonuniy o'zlashtirish muammosi o'zimizda ham uchrab turibdi. Shuning uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jamiyatimizda dolzarb muammoga aylangan korrupsiya illatini tag-tomiri bilan yo'q qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar samarasi o'laroq, oliy o'quv yurtlaridagi poraxo'rliklar, poytaxtimizdagi "propiska" bilan bog'liq taqiqlar, valyuta sotish va sotib olish muammolari bartaraf qilinmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashdagi mintaqaviy va global tashabbus hamda yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi, ularda faol qatnashadi. Mamlakatimiz albatta korrupsiyadan xoli davlatlar qatoridan joy oladi

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki fuqarolarimizni huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish korrupsiyaga qarshi kurashda samarali vositalardan hisoblanadi. Bu borada huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish orqali davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonun va huquqqa bo'lgan ijobiy munosabatga yetishish lozimdir. Shuningdek bu o'rinda jamoatchilik nazorati institutlarining o'rnini ham oshirish talab etiladi. Bu esa, fuqarolar ijtimoiy-huquqiy faolligini talab etadi.

So'zimni tasdig'i sifatida shuni aytishim mumkinki 5 mart 2025 yili korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida muhtaram Prezidentimiz ma'ruzasida "Hammamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta,

katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak deb ta'kidladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 96 b.
2. “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 6 iyulda qabul qilgan PF-6257-sonli “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017-yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'RQ-419-son qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 200-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5 mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida ma'ruzasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni.